

UDK 633.88 634.9

**DALACHOY (HYPERICUM) O'SIMLIGINING DORIVORLIK
XUSUSIYATLARI AHAMIYATI***Abdurahmonov Muhammadmo'ydin Bohodirjon o'g'li¹**Yulbasov Avazbek Muhtarovich²**Sultonov Xumoyun Mahmudjon o'g'li³**Nazirjonov Ibrohimjon Anvarjon o'g'li⁴**abdurahmonovmuhammadmoydin@mail.ru¹**avazbekakayulbarsov@gmail.som²**xumoyunsu@gamil.com³**nazirjonovi@mail.ru⁴**O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti**Andijon filiali ilmiy xodimlari*

Annotatsiya: Maqolada Respublikamiz xududlarida tabiiy ravishda yetishtiriladigan dorivor o'simliklardan biri bo'lgan dalachoy (hypericum) ning dorivorlik xususiyatlari turlari va ularni tibbiyotda qo'llanilishi haqida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: Dalachoy, dog'li dalachoy, gul, teshik dalachoy, dorivor o'simliklar ildiz, damlama, meva, poya, qizilpoycha, qaynatma, po'stloq

Abstract: The article provides information about the medicinal properties and medical use of St. John's wort, one of the medicinal plants growing naturally on the territory of our Republic.

Keywords: Field grass, spotted field grass, flower, field grass with holes, medicinal herbal root, tincture, fruit, root, red root, decoction, bark

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi PQ-251-sonli qarorida Respublikamiz xududlarida dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish xamda dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish hamda qayta ishlashni tashkil etish, dorivor o'simliklarning madaniy plantatsiyalarini barpo etishni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, kasalliklarning oldini olish va davolashda dorivor o'simliklarni keng qo'llash maqsadida.

Yer yuzida o'sadigan o'simliklarning ko'pchiligi dorivor o'simliklarni tashkil etadi. Dorivor o'simliklar turli xil kasalliklarni davolashda tabiiy giyoh sifatida xalq tabobatida keng foydalanilmoqda. O'zbekistonda tabiiy holda 4500 turga yaqin yuksak o'simliklar tarqalgan ularning 1200 ga yaqin turi dorivorlik xususiyatiga ega o'simliklardir. O'zbekistonning Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo va

Surxondaryo viloyatlarining tog'li tumanlaridagi tog'larning tog' oldi qismidan tog' o'rta qismigacha bo'lganyumshoq toshli va shag'alli tog' qiyalarida, ochiq, tekis va boshqa yerlarda keng tarqalgan. Dalachoy turlari yo'l yoqalarida, ariq bo'ylarida, o'tloqlarda, bedazorlarda, o'rmonlarda, o'rmon chetlarida, butalar orasida o'sadi. Asosan Ukraina, Belarus, Moldova, Boltiq bo'yi davlatlari, Rossiyaning Yevropa qismi va g'arbiy Sibirning o'rmon, o'rmon-cho'l zonasida, Kavkazda hamda O'rta Osiyoda uchraydi.*1+Kimyoviy tarkibi. Mahsulot tarkibida 10-12,8% oshlovchi moddalar, 0,1-0,4% atratsen unumlari (giperitsin, psevdogiperitsin va boshqalar), flavonoidlar (giperozid, rutin, kversitrin, izokversitrin, kversetin, miritsetin va boshqalar), 0,1-0,33% efir moyi, 55mg % karotin, 1151,8 mg % vitamin S, 34 mg % xolin, juda oz miqdorda alkaloidlar va 10% gacha smola bo'ladi. Ishlatilishi. Mahsulotning dorivor preparatlari burishtiruvchi, antiseptik va yara to'qimalarini tez bitiruvchi ta'sirga ega. Tibbiyotda me'da-ichak (kolit, ich ketishi), og'iz Dorivor moddalar o'simliklarning ildizi yoki po'stlog'ida, poyasi va bargida, guli va mevasida to'planadi va mavsumiy yig'ib olinadi. Dorivor o'simliklardan biri bo'lgan dalachoy ham juda ko'p kasalliklarni davolashda foydalanib kelinmoqda. Dalachoyni 3 ta turidan tibbiyotda foydalaniladi. Teshik dalachoy (*Hypericum perforatum*) bu - tur Hypericaceae oilasiga mansub bo'lib poyasi tik o'suvchi 30-100sml 2 qirrali shoxlangan, ko'p yillik ildizpoyali o'simlik. Barglari qarama-qarshi joylashgan shakli cho'ziq ovalsimon bezli tukchalari ham bor. Gullari sariq 3 ta to'plamda birlashib ko'p sonli changchilardan tashkil topgan. Urug'chisi 3 ustunli ustki tugunchadan iborat. Mevasi ko'sak 3 uyali, ko'p urug'li, iyun-iyul oylarida gullaydi, sentyabrda mevasi pishadi. Teshik dalachoy qizilpoychadan changchilarini gultojibargidan qisqaligi bilan farqlanadi. Bu o'simlik Farg'ona, Toshkent, Surxondaryo, Samarqandning tog' oldi va tog' o'rta hududlarida ko'plab uchraydi.

Qo'llash usullari: 1. 10 gr quruq dalachoy o'tiga qaynoq 1 stakan suv quyib damlab qo'yiladi. Bu damlamani ovqatdan so'ng 2-4 marta 1 osh qoshiqdan ichiladi. Bu damlamani quyidagi kasalliklarda qo'llash mumkin.

- Og'iz bo'shlig'i kasalliklarida (gingivid, stomatit)
- Meda ichak kasalliklarida (kolid, ichburug')
- Asab tizim kasalliklarida (deprretsia)

1/2 stakan suvga 20-30 tomchi spirtli nastroykasidan qo'shib og'iz chayilsa og'izdagi yomon hidlarni yo'qotadi.



1-rasm dorivor Dalachoy (*Hypericum*) o'simligi

Dalachoyni yog'idan teri tozalashda ham foydalaniladi. Qizilpoycha (*Hypericum scabrum*) - poyasi tik o'suvchi ko'p qirrali shoxlangan ko'p yillik o'simlik. Tanasi ozroq tukli bo'rtmalar hisobiga g'adir-budir. Ildizi yog'ochlashgan eni 4-10 mm poyasi ko'p sonli qizg'ish-binafsha rangga bo'yalgan. To'pgul qismi kamroq shoxlangan. Barglarining uzunligi 10-15 mm cho'zinchoq, lansetniksimon, cheti ichkariga o'ralgan, bezli, tukchalar bilan qoplangan. To'pgulini eni 3-5 smli, ro'vak qalqonchasimon, to'pgul novdasi dag'al. Gultojibarglari to'kilmaydigan cho'zinchoq, teskari tuxumsimon, bezli kipriklardan iborat, uzunligi 4-10 mm eni 2-4 mm. Ko'saklari tuxumsimon 5-7 mm uzunlikda. Urug'i silindrsimon uzunligi 2 mm zich qoplangan tukli bo'rtiqlari bilan oqish rangda. May-iyun oylarida gullab avgustda mevasi pishib yetiladi. Bu o'simlik Jizzax Qashqadaryo hududlarining tog' yonbag'irlarida, toshli va shag'al qiyaliklarida ko'plab uchraydi. Qizilpoycha yuqori antibakterial bo'lganligi uchun gripp va boshqa virusli kasalliklarni davolashda keng qo'llaniladi. Qo'llash usullari: Qizilchapiychaning quruq maydalangan 1 osh qoshiq o'tiga 1 stakan suv solib 3-4 daqiqa qaynatiladi va 2 soatdan so'ng suziladi. 1/3, 1/4 stakandan kuniga 3 mahal ovqatdan 30 daqiqa oldin ichiladi. Bu qaynatma bronxit, yo'tal, sistit, kolit, enterit va gepatit kasallashda foydalanib kelinmoqda. Dog'li dalachoy (*Hypericum maculatum*) - poyasi 60sm gacha o'sadigan tuksiz, ko'p yillik, ildizpoyali o'simlik. Bu o'simlik *Hypericum tetrapterum* ham deyiladi chunki poyasining ko'ndalang kesimi to'rtburchak shaklida bo'ladi. Barglari oddiy, butun, poyada qarama-qarshi joylashgan bo'lib, shaffof bezlari kam yoki umuman bo'lmaydi. Gullari och sariq rangli diametri 10-15 mm bo'lib 5 ta gulbandda 10-30 tadan gulchalari joylashgan. Bu o'simlik Yevropa botqoqliklarida, ochiq ariqlarida, soylarda, buloqlarda va namlik yuqori bolgan ko'plab hududlarida uchraydi. Dog'li dalachoydan tayyorlangan moy ekstrakti tayanch-harakat tizimini davolashda qo'llaniladi. Uning quritilgan o'tidan tayyorlanga damlama esa yurak-qon tomir, oshqozon-ichak traktida, asab tizim kasalliklarini davolashda yaxshi natija bermoqda. Ushbu ma'lumotlar asosida keying izlanishlar Dalachoy o'simligini saraton hujayralarini ko'payib ketishiga qarshilik ko'rsatganini bilgan holda bu hujayralarni butunlay yo'qolishini

o'rganishga asoslangan. Shu orqali dalachoyni saraton hujayralarini butunlay yo'qolishini ta'minlaydigan yangi navlarini ishlab chiqib o'rganiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Saxobiddinov S.S “O'simliklar sistematikasi-2” “Gulli o'simliklar” Toshkent.1966
2. Xojimatov O.K, Haydarov D.T, “O'zbekiston Dorivor O'simliklar Atlasi” o'quv qo'llanma Samarqand.2021
3. M.Qobulova, M.Fayziyeva Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке» Dalachoy o'simligi va uning turlarini o'rganish, hupericum scabrum dag'al dalachoy” o'simligining xususiyatlari май 2023 yil
4. Maxsumov M.N, Malikov M.M “Farmakologiya” Toshkent.2016
5. Azizova S.S “Farmokologiya” Toshkent.2002
6. Xarkevich D.A “Farmokologiya” Meditsina.2005